

ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDAGI YANGI TENDENSIYALAR

Saloydinova Maxliyoxon Abduvali qizi

Namangan Davlat Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15012631>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyati milliy ananalar va jahon adabiyoti ta'sirida qanday rivojlanayotganligi, yangi tendensiyalarni aniqlash, shoirlarning yangi badiiy uslublar, shakllar va janrlardan foydalanishi haqida tahlillar qilingan.

Kalit so'zlar: o'zbek she'riyati, milliy ananalar, modernizm, janrlar, tendensiyalar.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Салойдинова Махлиёхон Абдували кизи

Nаманганский государственный университет

Аннотация: В данной статье анализируется развитие современной узбекской поэзии под влиянием национальных традиций и мировой литературы, выявляются новые тенденции, рассматриваются использование поэтами новых художественных стилей, форм и жанров.

Ключевые слова: узбекская поэзия, национальные традиции, модернизм, жанры, тенденции.

NEW TRENDS IN MODERN UZBEK POETRY

Saloydinova Mahliyokhon Abduvali qizi

Namangan State University

Abstract: This article analyzes how modern Uzbek poetry is developing under the influence of national traditions and world literature, identifies new trends, and uses new artistic styles, forms, and genres by poets.

Keywords: Uzbek poetry, national traditions, modernism, genres, trends.

KIRISH

Zamonaviy o'zbek she'riyatida milliy an'analar jahon adabiyoti ta'sirida rivojlanmoqda. shoirlar uslublarni sinab ko'rishi, mavzular kengayin borishi kuzatilmoqda. Bugungi she'riyat klassikaga tayanish bilan birga, modernistik va postmodernistik oqimlardan ham ta'sirlanmoqda. Zamonaviy o'zbek she'riyati ananaviy she'riyatdan bir xillikdan qochish, ijtimoiy muammolarni badiiy tasvir vositalari va shoirning ichki dunyosidagi muvozanati, hissiy qarashlarining yorqin tasvirlashi orqali yoritilishi bilan farqlanadi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy o'zbek she'riyati modernizm va an'anaviylik o'rtasida muvozanatni saqlagan holda rivojlanib kelmoqda. Ijodkorlar bir tomonidan, klassik adabiyotimizga tayanib, milliy she'riyat ananalarini davom ettirmoqda, boshqa tomonidan esa, jahon modernistik adabiyoti ta'sirida yangi badiiy shakl va mazmun elementlarini qo'llamoqda. Ananaviylikning davom etishi-g'azal, ruboiy, masnaviy, tuyuq kabi shakllar saqlanib qolganligi bilan ko'rindi. O'zbek she'riyatida g'azal janri hanuzgacha yashab kelmoqda. Masalan, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi shoirlar ijodida zamonaviy ruh bag'ishlaganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari shoirlar milliy-mifalogik tasvirlardan ham keng foydalanishgan. Masalan, Omon Matjon ijodida tasavvufiy va falsafiy ramzlar keng qo'llanilgan. Modernizmning ta'siri Erkin she'r, poetik eksprementlar kirib kelishi orqali sezildi. An'anaviy qofiyalanish va vazn tizimiga bo'y sunmag'an

erkin she'rlar paydo bo'ldi. Masalan, Abduvali Qutbiddin, Jamol Kamol hozirgi yoshlar ijodida esa, Tillaniso, Jontemir, Fe'ruza Xayrullayevlar erkin she'r yozib, unda ichki ohang va ritmga urg'u berishganligini ko'rishimiz mumkin. Badiiy tasvir vositalarining kengayishi modernistik she'riyatda surrealizm, simbolizm, metaforalar va intertekstualik kabi unsurlar ko'p uchraydi. Masalan, Rauf Parfi she'riyatida klassik she'riy shakllar bilan birga modernistik ramzlar ham mavjud.

Shaharlashuv, ekzistensializm, globallashuv kabi yangi zamonaviy o'zbek she'riyatida ilgari kam yoritilgan mavzular paydo bo'ldi. Masalan, shaharlik insonning ruhiy iztiroblari, yolg'izlik, globallashuv ta'siri kabi mavzularni hozirgi yosh shoirlar ko'tarib chiqmoqda.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida modernizm va an'anaviylikning uyg'unlashishi quyidagi jihatlarda namoyon bo'lmoqda:

1. Shaklda an'anaviylik, mazmunda modernizm

Shoirlar an'anaviy g'azal yoki ruboiy shaklidan foydalanib, zamonaviy muammolarni yoritishmoqda. Masalan, Rauf Parfi klassik she'riy shakllardan foydalangan holda modernistik ruhdagi she'rlar yozgan.

2. Uslubda klassik va zamonaviy yondashuvlar birlashishi

Erkin Vohidov g'azallarida mumtoz adabiyot unsurlarini saqlagan holda, zamonaviy inson kechinmalarini aks ettirgan.

Ulug'bek Hamdam esa klassik she'riyat ta'sirida bo'lishiga qaramay, modernistik badiiy vositalardan foydalangan.

3. Tasvir uslubida milliylik va modernizm sintezi

Shoirlar klassik ramzlardan foydalangan holda yangi poetik obrazlar yaratmoqda.

Yigirma birinchi asr yosh ijodkorlari orasida ham yangi ovozlar paydo bo'la boshladi, Najmiddin Ermatov, Shahriyor Shavkat, Rashid Ho'jamov, Nurmuhammad Abduzoirov kabi shoirlarning ijodida an'ana iy timsollar orqali zamonaviy ohang, yangicha ruh, hissiy barqarorlik o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun Shahriyor Shavkatning 'Alqissa', 'Ular humo qushni so'yib yedilar', 'Kuchber' kabi she'rlarida an'anviy qofiya va vazndan voz kechib, erkin, shakl va ritmlarni qo'llaydi.

Insonning ichki kechinmalari, yolg'izlik, hayot va o'lim, erk kabi mavzular chuqur tahlil qilingan. Metafora, simvol, intertekstual aloqalardan mohirona foydalanib, o'quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi.

XULOSA

Zamonaviy o'zbek she'riyati an'anaviylik va modernizmni uyg'unlashtirilgan holda rivojlanib, yangi badiiy tendensiyalarni shakllantirmoqda. Yangi ifoda uysullari va mavzularning kengayishi she'riyatimizni boyitib, o'zbek adabiyotining jahon adabiyoti bilan integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ulug'bek Hamdam. Jahon adabiyoti modernizm va postmodernizm. Toshkent – 2020. Akademnashr.
2. Qozoqboy Yo'ldoshev. Modernizm, ildiz, mohiyat va belgilari. Toshkent-2014. Yoshlik jurnali 9-son.
3. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent-2018.
4. Uzoq Jo'raqulov. Nazariya poetika masalalari; Muallif. Janr. Xronotop. Toshkent-2015. G'ofur G'ulom nashriyoti